



# TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI QARORI

*Nurafshon shahri, Bobur ko'chasi, 1-uy*

№ 37

2024-yil 15-avgust

## **Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasining ish hujjatlari nomenklaturasi haqida**

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-moddasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024-yil 27-maydagi 1330-sonli qarori bilan tasdiqlangan Hududiy saylov komissiyasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi ish hujjatlari nomenklaturasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu qaror hududiy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi kotibi H.Odilov zimmasiga yuklatilsin.

**Rais**



**U.Tuxtayev**

**Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasi ish hujjatlari  
NOMENKLATURASI**

<b>№</b>	<b>Ishlar nomi</b>	<b>Saqlash muddati</b>	<b>Jild raqami</b>
1.	Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasining qarorlari, bayonnomalari, dalolatnomalar daftari va yig'majildi	5 yil	1
2.	Markaziy saylov komissiyasining qarorlari, farmoyishlariga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	2
3.	Qonunchilik palatasi deputatlari sayloviga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	3
4.	Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputatlari sayloviga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	4
5.	Tuman saylov komissiyalari haqidagi ma'lumotlarga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	5
6.	Saylov uchastkalari va uchastka saylov komissiyalariga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	6
7.	Referendum o'tkazilishiga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	7
8.	Kirish, chiqish hujjatlarini ro'yxatga olish daftari va yig'majildi	5 yil	8
9.	Moliyaviy hujjatlar va saylov jihozlari hisobiga oid ish yuritish yig'majildi	5 yil	9
10.	SYAER va SJBATga oid hujjatlar yig'majildi	5 yil	10
11.	Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ro'yxatga olish daftari va yig'majildi	5 yil	11
12.	Kuzatuvchilarni ro'yxatga olish daftari.	5 yil	12

*Izoh: Hududiy saylov komissiyasi hujjatlari hududiy saylov komissiyalarining idoraviy arxivlarida besh yil mobaynida saqlanib, keyinchalik viloyatlar davlat arxivlariga saqlash uchun topshiriladi.*